

## SUD PSIXOLOG EKSPERTI KOMPETENTLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK

### XUSUSIYATLARI

Olimov Laziz Yarashovich

Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasи dotsenti

*Annotatsiya: Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsiyal va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantrishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsiyal intellekt, kasbiy faoliyat.*

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОМПЕТЕНТНОСТИ СУДЕБНОГО ПСИХОЛОГА-ЭКСПЕРТА

Olimov Laziz Yarashovich

Buxarskij государственный университет, доцент кафедры психологии и социологии

*Аннотация: В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.*

*Ключевые слова: судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.*

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE COMPETENCE OF THE FORENSIC PSYCHOLOGIST EXPERT

Olimov Laziz Yarashovich

Bukhara state university, docent department of psychology and sociology

*Abstract: This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.*

*Key words: forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.*

Kirish. Jahonda yuqori malakali, raqobatdosh, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, jumladan Xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsuS (International Union of Psychological Sciense) tomonidan 2018-2023-yillarga mo'ljallangan "Psixologiya sohasini yanada takomillashtirish konsepsiysi"da malakali psixologlarni tayyorlash hamda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantrishda ijtimoiy-psixologik fanlarni o'qitish bilan bir qatorda, ularga ekspert baholay olish salohiyatini oshirishning samarali mexanizmlarini ham yo'lga qo'yish, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakll:antirish yo'llarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, jahonda muvaffaqiyatlari tarzda olib borilayotgan islohotlar jarayonida sud psixolog ekspertlari faoliyatiga qo'yiladigan talablar, ularning shaxsiy, kasbiy va intellektual salohiyatini psixologik jihatdan yuksak darajaga ko'tarish masalasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borish zarurati borligidan dalolat beradi.

Jahonda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligining psixologik

jihatlarini o'rganish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish omillarini tadqiq etish, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini baholash, ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus tizimlashtirilgan psixologik usullar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, sud psixolog ekspertlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.

"Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko'rsatib o'tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo'gan xususiyatlarni ro'yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojalanishi muammosini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo'lgan ko'plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e'tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo'lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiylar psixologiyaga, balki ko'pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o'rganish bo'yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo'lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomonidan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I.Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalarini doirasida o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab strukturali va dinamik ta'lim jarayonidir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi:

- yaxlitlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi asos qilinadi;
- ob'ektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, ob'ekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;
- sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;
- turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta

yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiyligi jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijalini tomonlarini ajratib ko‘rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o‘qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya’ni ta’lim oluvchining ta’lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat foliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtiroy etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasи, ya’ni motiv, bilim, ko‘nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko‘rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo‘ladi.

A.V.Xutorskiyning o‘tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o‘ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo‘lishi, kompetensiya esa insонning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlikka qo‘yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta’kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, kompetentlik faqatgina individual psixologik xususiyat bo‘libgina qolmasdan, balki hissiy-irodaviy sifatlarni ham o‘z ichiga oladi. Agarda mana shu hissiy-irodaviy sifatlar bo‘lmaganida edi, sud psixolog eksperti o‘z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil qila olmas edilar.

M.Kyaerst tadqiqotlarida kompetentlikning mohiyati va uning asosi sifatida (qobiliyatlar, iqtidor, bilim), insон faoliyati jarayon sifatida (ta’riflar, tavsiyalar, alomatlar), faoliyat natijalari (ish natijalari, faoliyat ob’ektidagi o‘zgarishlar) kabi komponentlar kiritiladi. Muallif kompetentlik mazmuniga quyidagi tavsiyalarini kiritgan:

- lavozimda ishlayotgan shaxs(xodim)ga majburiy bo‘lgan masalalarga intellektual mosligi;
- mutaxassis tomonidan shakllantirilgan va hal etilgan masalalarning asosiy ishdagi miqdori va sifati;
- asosiy masalalarni hal etishdagi muvaffaqiyat;
- muammoli masalalar yechimining samaradorligida namoyon bo‘luvchi shaxsning xususiyatlari.

Bu yerda olim kompotentlik tushunchasiga ko‘proq insонning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib yondashgan.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko‘nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya’ni insонlar bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish malaka va ko‘nikmalar tizimi. Yuqoridaq ikkala yo‘nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo‘lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to‘laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta’kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi, faoliyatda qanaqadir turg‘unlik bo‘lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to‘siq bo‘lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo‘naltirilganlik, maqsadni qo‘ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o‘z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositali, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o‘ziga xos bo‘lgan

me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

- c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;
- d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariq bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarda o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash sud psixolog ekspertidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish qibiliyati ekanligini ta'kidlaydi. Ko'rinish turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

- a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub'ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;
- b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog'liq;
- c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo'naltirilganligi kompetentlikka asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog ekspertlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog ekspertlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

O.A.Konopkining fikriga ko'ra, inson faoliyatga kirishishida ongli ravishda o'zini-o'zi nazorat qilishi quyidagi tuzilmaga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi: maqsadni sub'ektiv qabul qilish faoliyatning muhim shartlarini sub'ektiv moduli; harakat dasturi (harakatlarni, vosita va usullarni tartiblashtirish); natijalarni baholash.

Shu nuqtai-nazardan sud psixologik ekspertizasida amalga oshiriladigan psixodiagnostik ishlar bilan bir qatorda sud psixologik ekspertizasi xulosasini tegishli tartibda sifatli va adolatli ravishda rasmiylashtirish sud psixolog ekspertlari oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Bir qancha tadqiqotchi olimlar kompetentlik va kompetensiyaning muhim tavsiflaridan biri sifatida mavjud bilim va tajribalarning zarurligi hamda ularni egallovchi sub'eklarning faolligi deb hisoblaydilar.

Dj.Raven o'z izlanishlarida kompetentlikni biror bir ob'ekt yoki ob'ektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak, deb hisoblaydi.

M.D.Lapteva rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda kompetentlikning tub mohiyati uning tatbiqi ob'ektiga munosabat, kasbiy o'zini-o'zi baholashning shaxsga tegishli jihatni va ota-onalik munosabatlarining hissiyotlari orqali amalga oshiriladi. Kompetentlikning namoyon bo'lish mezonlariga hissiyot, idrok regulyatsiyasini baholash mezonlari sifatiga istiqbolli masalalarni qo'yish, ularni hal etish yo'llarini topishda qat'iyatlilik, talabgorlikning moslik darajasi, kasbiy layoqatini o'zi tomonidan baholanishi kabilarni kiritilgan. Yuqoridagi kabi bu xislatlarning bo'lishi bo'lajak kasb egasini yuqori kompetentlikka ega bo'lishini ta'minlashi mumkin ekan.

A.V.Raysev tamonidan kompetentlik tushunchasining mohiyatida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo'ljalli va nutqli. Shundagina mutaxassis kompetentligi har doim faoliyat turiga bog'liq bo'lgan aniq holatda namoyon bo'ladi.

L.G.Semushina asarlarida talqin qilishicha, malaka past, o'rtacha va yuqori darajada bo'lganligi tufayli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini beligab beradi, deb ta'kidlaydi. Olim bu yerda malakani kompetentlik tushunchasiga yaqinlashtirishga uringan.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

- shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;
- asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallah;
- bilish faollik darajasining o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish

usullarini qo'llash ko'nikmasi;

- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darjasи;
- samarali kasbiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;
- ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;
- anglashning faollik darjasи.

Bizningcha, muallifning mazkur ta'rifida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

### NATIJALAR

Psixologik trening amaliyoti davrida psixologiya fanidan dars berayotgan va ayni bir vaqtning o'zida sud psixologik ekspertizasida ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilarning sud psixolog eksperti sifatidagi kompetentlik malakalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tadqiqotimizning diagnostik bosqichi natijalariga ko'ra, ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini o'rta va yuqori darajaga erishilishiga qaratilgan rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'zlangan maqsad respondentlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish, hamda uni tashkil etuvchi komponentlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan trening shaklidagi psixotexnikalarni ishlab chiqish, ularning samaradorlik darajasini tekshirib, amaliyotga tatbiq etishdan iborat bo'ladi.

#### 1-jadval

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili (n=102)

Omillar		Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan ekspertlar (n1=41)				Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan ekspertlar (n2=61)			
		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	
		n	%	n	%	n	%	n	%
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	32	78	40	65,6	55	90,2
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	9	22	21	34,4	6	9,8
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	29	70,7	33	54,1	48	78,7
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	12	29,3	28	45,9	13	21,3
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«C» omil	Barqaror	13	31,7	24	58,5	43	70,5	51	83,6
	Beqaror	28	68,3	17	41,5	18	29,5	20	16,4
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	83	34	55,7	55	90,2
	Pessimizm	25	60,09	7	17	27	44,3	6	9,8
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	23	56,1	38	62,3	47	77
	Realist	27	65,9	18	43,7	23	37,7	14	23
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«N» omil	O'zini nazorat qila oladigan	19	46,3	28	68,3	45	73,8	52	85,2
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	13	31,7	16	26,2	9	14,8
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
«M» omil	O'ziga yo'nalgan	18	43,9	14	34,1	28	45,9	24	39,3
	O'zgalarga yo'nalgan	23	56,1	27	65,9	33	54,1	37	60,7
	Jami	41	100	41	100	61	100	61	100
Jami		41	100	41	100	61	100	61	100

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasi asosida olingan natijalar tahliliga qaraydigan bo‘lsak, nazorat tajriba natijalari barcha ijobiylarning o‘sishiga erishilganligini qayd etish lozim. Xususan, besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan ekspertlarida optimizm (83%), muloqotchanlik (78%), mantiqiy fikrlaydigan (70,7%), o‘zgalarga yo‘nalganlik (65,9%) omillari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning yuqori darajada o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan ekspertlarda muloqotchanlik (90,2%), optimizm (90,2%), o‘zini nazorat qila oladigan (85,2%), barqarorlik (83,6%) omillari bo‘yicha ko‘rsatkichlarning yuqori darajada o‘sish kuzatildi. Bu esa sud psixologik ekspertizasi sifat-samaradorligining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi (1-jadval).

Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik, sud psixologik ekspertizasiga doir ijtimoiy-psixologik bilimlar diapazoni va emotsiyal intellekt ko‘rsatkichlarining muhimligiga ko‘ra muammolar yechimini izlashda hissiy-irodaviy, kognitiv va kommunikativ motivatsiya imkoniyatlarini takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalarni qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishilganligini ko‘rshimiz mumkin.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, deyish mumkin. Dissertatsion tadqiqotimizning samaradorligini aniqlash uchun qayta diagnostik tadqiqot ishlarini amalga oshirish natijasida olingan ma’lumotlar tahlili o‘quv moduligacha va undan keyingi holat bo‘yicha o‘rtacha miqdoriy ko‘rsatkichlar diapazonida qiyosiy jihatdan taqqoslandi. Bu esa sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo‘lgan kasbiy kompetentlikning o‘ziga xos tarzda o‘zgarganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta’minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni qo‘llay olish bo‘yicha bilimdonligini oshirish nazarda tutilgan. Buni barcha sud psixolog ekspertlarining o‘quv modulini qo‘llashdan keyingi natijalari ham tasdiqlaydi (2-jadval, 1-rasm).

2-jadval


Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi namoyon etilishining qiyosiy  
tahlili (ijtimoiy psixologik so‘rovnama asosida)

savollar	besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lganlar n1=41				O’si sh farq i	besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlar n2=61				O’si sh farq i		
	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba			Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba				
	M1	S	M2	S		M	M1	S	M2			
1	4,61	2,17	7,00	2,04	2,39	6,34	2,19	8,23	1,27	1,89		
2	5,15	2,34	6,68	2,32	2,24	6,20	2,37	8,69	1,72	2,49		
3	4,44	2,43	6,12	2,64	1,68	6,43	2,28	8,30	1,58	1,87		
4	5,37	3,42	7,80	3,09	2,43	7,28	2,92	8,69	2,19	1,41		
5	4,10	2,03	6,90	2,41	2,80	6,61	2,30	8,57	1,12	1,96		
6	5,27	2,74	7,98	2,20	2,71	6,16	2,29	8,75	1,39	2,59		
7	5,73	2,31	8,05	2,05	2,32	6,87	2,16	8,92	1,33	2,05		
8	5,93	2,25	8,15	1,97	2,22	6,49	2,12	8,62	1,56	2,13		
9	5,32	2,71	7,88	2,40	2,56	6,20	2,25	8,87	1,12	2,67		
10	5,15	2,42	7,71	2,47	2,56	6,00	2,14	9,00	1,25	3,00		
11	5,73	2,30	8,10	2,07	2,37	6,38	2,49	8,26	2,42	1,88		
12	6,24	2,42	7,83	2,08	1,59	6,84	2,23	9,13	1,27	2,29		
13	6,63	1,93	8,37	2,03	1,74	6,13	2,28	8,98	1,50	2,85		
14	4,66	2,34	8,54	2,19	3,88	5,74	2,45	8,98	1,52	3,24		
15	6,71	1,95	8,02	2,33	1,31	6,93	2,00	8,90	1,49	1,97		
16	3,95	2,02	8,46	2,20	4,51	6,05	2,25	7,70	1,80	1,65		
17	4,88	2,29	8,66	1,97	3,78	7,02	2,19	9,21	1,29	2,19		
18	5,68	2,39	8,59	2,04	2,91	7,08	2,47	9,36	1,13	2,28		
19	3,95	2,32	8,73	1,90	4,78	6,30	2,64	9,18	1,36	2,88		
20	5,95	2,27	8,29	2,03	2,34	6,85	2,23	9,21	0,90	2,36		
21	5,61	2,27	8,56	1,73	2,95	6,44	2,25	9,10	1,11	2,66		


Izoh: M – o‘rtacha qiymat, S – standart xatolik

Yuqoridagi jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, o‘quv moduli qo‘llanilishdan oldingi ko‘rsatkichlar

bilan o‘quv modulini o‘zlashtirgandan so‘ng besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarida barcha ko‘rsatkichlarga o‘sish kuzatildi (aniqlovchi tajriba o‘rtacha ko‘rsatkich M1 3,95dan 6,71 gacha standart og‘ish S-0,80 ga teng holatda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, nazorat tajribada esa o‘rtacha ko‘rsatkich M2 6,12 dan 8,73 oralig‘ida o‘sishga erishilib, standart og‘ish S-0,70 ga teng holatda namoyon bo‘ldi).



1-rasm Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi namoyon etilishining qiyosiy tahlili (besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lganlar n=41)



2-rasm. Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi namoyon etilishining qiyosiy tahlili (besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlar n=61)

Besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarida ayniqsa Respondentning ish uchun ahamiyatlari bo‘lgan holatlarni idrok qila olishini baholash usullarini qo‘llay olishi (M1-6,30 dan M2-9,18 gacha, o‘sish M-2,88), xulosa berishning iloji yo‘qligi to‘g‘risidagi hujjat tayyorlash bo‘yicha (M1-3,95 dan M2-8,46 gacha, o‘sish M-4,51), sud ekspertizasini o‘tkazish asoslari va muddatlarini tushuntirishga doir bilimi (M1-4,66 dan M2-8,54 gacha, o‘sish M-3,88) kabilarda ko‘rsatkichlarda yuqori darajadagi o‘sishga erishilgan.

Besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarida ayniqsa, respondentning ish uchun ahamiyatlari bo‘lgan holatlarni idrok qila olishini baholash usullarini qo‘llay olishi (M1-3,95 dan M2-8,73gacha, o‘sish M-4,78 ), sud ekspertlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish bo‘yicha (M1-6,00 dan M2-9,00 gacha, o‘sish M-3,00), sud ekspertizasini o‘tkazish asoslari va muddatlarini tushuntirish doir bilimi (M1-5,74 dan M2-8,98 gacha, o‘sish M-3,24) kabilarda ko‘rsatkichlarda yuqori darajadagi o‘sishga erishilgan (aniqlovchi tajriba o‘rtacha ko‘rsatkich M1 5,74dan 7,28 gacha, standart og‘ish S-0,41 ga teng holatda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, nazorat tajribada esa o‘rtacha ko‘rsatkich M2 6,12 dan 8,79 oralig‘ida o‘sishga erishildi. Standart og‘ish S-0,41 ga teng holatda namoyon bo‘ldi) (3-jadval, 2-rasm).

Yuqoridagi natijalarga tayangan holda shuni qayt etish mumkinki, “Sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligi o‘quv modulini”ni qo‘llash asosida sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning kasbiy kompetentlik bilan ijobjiy aloqadorlikda to‘g‘ri proporsionalligi, malaka va kasbiy bilimdonligiga ko‘ra sifatli sud psixologik ekspertizalarini o‘tkazish uchun ustivor xarakterga ega ekanligi isbotlandi.

XULOSA. Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan psixologik

xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o‘quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta’siri natijasini tadqiq qilish bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturida sud psixologik ekspertizasiga doir psixologik vaziyatlar va shaxslararo munosabatlar tizimining ta’sirchan mexanizmlariga alohida e’tibor qaratildi.

2. Biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi psixotexnika dasturi qo‘llanilganidan so‘ng sud psixolog ekspertlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning rivojlanganligi aniqlandi. Jumladan, sud psixolog ekspertlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik va uning omillari indeksatsiyasi darajasi ortib, ularning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi, ijtimoiy vaziyatni adekvat baholash, o‘z emotsiyalarini refleksiv boshqarish ko‘nikmasi, muloqotchanlik, muvaffaqiyatga intilish tendensiyasi kuchayganligi aniqlandi.

3. Kasbiy kompetentlikning rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga aloqador bo‘lgan kasbiy kompetentlik (kasbiy layoqat)ning o‘ziga xos tarzda o‘zgarganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta’minlovchi sohaga oid qonun va qonun osti hujjatlari yuzasidan huquqiy, hamda psixodiagnostik ishlarni amalga qo‘llay olishi, sud psixologik ekspertiza xulosasini rasmiylashtirish bo‘yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

4. Sud psixologik ekspertizasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning ekspertlik faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog‘liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.

Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

Mehribian A. An analysis of personality theories. – Englewood Cliffs. N.J.: Prentice – Hall, 2004. – p. 240.

Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.

Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlod” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Ekstremal vaziyatlarda coping xulq-atvor va strategiyalar namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.

Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O‘smyrlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Psixologicheskie mexanizmi deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.

Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. Stressli vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlari va coping xulq-atvor namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya. Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvenniy universitet, 31-38.